



Aleksandr Makedonskiyning O`rta Osiyoga yurishlarining asosiy sabablari

Sidiqova Gulsanam

G`apporova Ruxshona

Shahrisabz pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar

fakulteti 1-kurs 2-24 guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksandr Makedonskiyning hayoti, O`rta Osiyoga qilgan yurishlari, bosib olgan hududlari yoritib beriladi.

Kalit sozlar: Baqtriya, Arastu, Vizantiya.

Аннотация: В этой статье рассматривается жизнь Александра Македонского, а также территории, которые он захватил в Центральной Азии.

Ключевые слова: Бактрия, Аристотель, Византия.

Abstract: This article discusses the life of Alexander the Great and the territories he conquered in Central Asia.

Key words: Bactria, Aristotle, Byzantium.

Kirish. Aleksandr, (Sharq mamlakatlarida Iskandar, Iskandar Zulqarmayn nomi bilan mashhur) mil av. 356-yil 20 iyun kuni Pella shahrida tavallud topgan. Otasi Makedoniya podshos Filipp II va onas esa Epir shohining qizi - Olimpiada edi Iskandarning onasi



Olimpiada o'zini butkul taxt voria bo'lmish o'g'lining tarbiyasiga bag'ishladi. Otasi esa ko'pincha harbiy yunshlarda bo'lgani uchun o'g'liga ko'p vaqt ajrata olmas edi va hamisha undan uzoqda bo'lar edi. Shunga qaramasdan Iskandar otasining jasorah va amiyasining erishgan natijalari bilan faxrlanar edi. Biroq Olimpiada o'g'lini doimo otasiga qarshi qayrab kelar edi, shuning uchun bo'lajak hukmdor otanga nisbatan ko'ra onasiga mehrnni ko'proq bergan edi Shahzoda Iskandar bo'lajak hukmdor bo'lganligi uchun maxsus ta'lim olgan. O'n uch yoshidan boshlab esa u buyuk faylasuf Arastu (Anstotel) dan ta'lim-tarbiya ola boshlagan. Arastu taxt vorisining murabbiy bo'lganligi uchun shogirdiga ko'proq siyosat, etika va falsafadan ta'lim bergan. Bundan tashqari vasiyligidagi Iskandarga klassik ta'lim berishni xohlagan Arastu unga tibbiyot, adabiyot va she'riyatdan ham saboq bergan. Iskandar yoshlik yillandanoq izzattalablik, qaysarlik va maqsadga intilish kabi sifatlarni ko'rsatib kelgan. Boshqa tomondan esa u jismoniy lazzatlarga butkul befarq bo'lgan, ortiqcha ovqat yeyishdan o'zini tiygan va ayollarga qiziqish bildirmagan. Iskandar 16 yoshligida otasi Vizantiyani zabt etishga otlanar ekan, ilk bor Makedoniya boshqaruvni o'g'liga topshirib ketadi. Huddi shu payt mamlakatda isyon ko'tariladi. Yosh shahzoda poytaxtda qolgan polklar bilan qo'zg'olonni bostirishga erishadi.

Adabiyotlar tahlili. Azamat Ziyov "O'zbek davlatchiligi tarixi" kitobida Aleksandr Makedonskiy haqida qisqacha, lekin muhim ma'lumotlar berilgan. Aleksandr Makedonskiy o'zining ekspansiyasi davomida O'rta Osiyo hududlaridagi qadimiy davlatlarni, xususan, Baqtriya va Sog'dianani egallagan. Uning bu hududlarga qilgan yurishlari, nafaqat hududiy ziddiyatlarga olib kelgan, balki uslub va madaniyatni ham o'zgartirgan. Aleksandrning O'rta Osiyodagi ta'siri, keyinchalik, Grek-ungar madaniyatining tarqalishiga, shuningdek, Helenizmning bu mintaqada rivojlanishiga sabab bo'lganligi haqida so'z boradi. Doniyorovning "Markaziy Osiyo tarixshunosligi" kitobida Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyo va Markaziy Osiyo tarixidagi o'rni va ta'siri haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Kitobda uning O'rta Osiyoga qilgan yurishi va bu voqea mintaqada qanday



tarixiy o'zgarishlarga olib kelganligi tahlil qilinadi. Aleksandrning bu hududga bosqini va uning natijalari Markaziy Osiyo tarixining muhim qismi sifatida o'rganiladi. Eshov Aleksandrning Baqtriya va Sogdiana shaharlaridagi bosqinlarini yoritadi. Uning harbiy yurishlari davomida, Aleksandr Baqtriya shaharlarini egalladi va Sog'dianadagi muhim shaharlar bilan aloqalar o'rnatdi. Ayniqsa, Balkh (Baqtriyaning poytaxti) va Marv kabi qadimiy shaharlarning Aleksandr uchun strategik ahamiyati katta bo'lgan.

Metadologiyasi. Maskur maqolada manbashunoslik, tahliliy taqqoslash orqali tahlil qilindi.

Dolzarbliqi: Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoga yurishini amalga oshirganidan so'ng, mintaqada mavjud bo'lgan siyosiy tuzumlar va davlatlar o'zgardi. Baqtriya, Sogdiana, va boshqa hududlar o'zlarining mustaqilligini yo'qotib, Grek imperiyasining ta'siri ostida bo'ldi. Bu siyosiy o'zgarishlar O'rta Osiyoning tarixiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi, ayniqsa, Helenizmning bu hududda tarqalishiga turtki bo'ldi.

Tahlil va natijalar: Makedoniya podshosi Filipp II va uning rafiqasi Olimpiadaning o'g'li. Aristoteldan ta'lim olgan, harbiy ilimni otasidan o'rgangan. 336-yil Filipp II fitnachilar tomonidan o'ldirilgach, Makedoniya taxtiga o'tirgan. 334-yil Aleksandr Eronga yurish boshlaydi; bu bosqinchilik urushi otasi Filipp II davridayoq boshlangan bo'lib, uning o'limi tufayli to'xtab qolgandi. Aleksandr qo'shinida sarkardalardan Antipatr, Parmenion, Ptolemey Lag va boshqa, shuningdek 30 mingga yaqin piyoda jangchi, 5 ming otliq, yengil qurollangan yordamchi otryadlar va 160 ta kema bo'lgan. Aleksandr Granik (334-yil), Iss (333-yil) va Gavgamela (331-yil) janglarida Doro III qo'shinlarini yenggan. Aleksandr Eronning markaziy shaharlari — Bobil, Suza, Persepol, Ekbatanahamda Misrni egallagan. So'g'd va Baqtriyaga yurishi Aleksandr 329-yil Baqtriyani egallagach, satrap Bess, Oke (Ukuz, Amudaryo) dan kechib o'tib, Navtaka (Qashqadaryo vohasi) ga chekingan. Ammo Bess tezda qo'lga olinib, qatl etilgan. So'ng, Aleksandr Samarqand (Marokanda)ni egallab, Sirdaryo tomon yo'l oladida, u yerda shahar barpo etib, uni Aleksandriya Esxata (Chekka Iskandariya) deb ataydi. Umuman



Aleksandrning O`rta Osiyoga nisbatan bosqinchilik siyosati qattiq qarshilikka uchragan.(1) Ushrushonadagi yettita shahar-qal`a Aleksandrga qattiq qarshilik ko`rsatgan. Bularning ichida eng kattasi — Kiropol bo`lib, Kir II uni boshqa shahar-qal`alarga nisbatan baland devor bilan o`rattirgandi. Uning ichida mahalliy aholining ko`pchilik qismi, eng jangovar jangchilar to`plangandi. Aleksandr shahar atrofiga xandaq qazittirgan, manjaniqlar (devorteshar mashinalar) bilan devorning bir necha yeridan teshik ochib, u yerdan shaharga bostirib kirmoqchi bo`lgan. Bu urinishi natijasiz chiqqach, u harbiy hiyla ishlatib, shahar ichidan o`tgan quruq daryo o`zani orqali o`zining xos jangchilari bilan shaharga kirgan. Kiropol mudofaachilari bilan Aleksandr jangchilari o`rtasida shiddatli jang bo`lgan. Unda Aleksandr boshi va bo`yniga tosh tegib yarador bo`lgan, bir qancha lashkarboshilari (Krater va boshqalar) kamon o`qidan shikastlangan. Makedon qo`shini katta qiyinchilik bilan shaharni egallagan. Shahar mudofaachilari (jami 15 ming) dan 8000 ga yaqini halok bo`lgan, qolgani ichki qo`rg`onga yashiringan, so`ng tashnalikdan qiynalib taslim bo`lgan. Makedon qo`shini qolgan shaharlarni ham shu tariqa qiyinchilik bilan egallagan.(2) Aleksandr mahalliy xalqning jasoratidan shu qadar xavotirga tushganki, Ptolemeyning aytishicha, u o`z jangchilariga asir olingan kishilarni bo`lib berib, to bu mamlakatdan chiqib ketmagunlaricha ularni zanjirband holda saqlashni topshirgan. Aleksandr So`g`diyona da spitamen qo`zg`olon ko`tarib, Marokandani qamal qilgani (qarang Spitamen, Spitamen qo`zg`oloni) va Tanais ortidan saklar podshosining ukasi Kartazis boshchiligidagi katta qo`shin unga yordamga yetib kelgani haqida xabardor bo`lgach, qo`zg`olonchilarga qarshi 2000 kishilik qo`shin jo`natib, o`zi saklar tomon qo`shin tortgan (qarang Tanais daryosi bo`yidagi jang).(3) Mazkur qo`shin tormor keltirilgach, Aleksandr shaxsan o`zi katta kuch bilan Spitamenni dasht chegarasigacha ta`qib qilib borib, ortga qaytishda 120 mingdan ortiq tinch aholini qirib tashlaydi, ko`plab qishloq va qal`alarni vayron qiladi, ekinzor, bog`-rog`larni payhon etadi. Aleksandr mil. av. 329-328-yillar qishini Zariaspa (Balx, Baqtra)da o`tkazadi. Bahorda uning huzuriga xorasmiylar podshosi Farasman 1500 jangchisi bilan kelib o`zaro ittifoq tuzishni taklif



etadi. Aleksandr 328-327-yil boshida Sug'diyonadagi tog'lar ustida joylashgan qal'alardagi qo'zg'olonchilarni bo'ysundirishga juda ko'p kuch sarflaydi, ularni mag'lub qilgach, Oksiartning qizi Roxshanak (Roksana) ga uylanadi (qarang So'g'd qo yasi, Xoriyen qal'asi va boshqalar). (4) Mil. av. 327-yil yozida Aleksandr so'g'dlik Oropiyni So'g'diyona hokimi etib tayinlab, o'zi Hindistonga yurish qiladida, Gidasp daryosi (Hind daryosi irmog'i) sohilida katta qiyinchilik bilan podsho Por qo'shini ustidan zafar qozonadi. Shu tariqa Aleksandr Panjobni egallab, Gang daryosi vodiysiga yurishni davom ettirmoqchi bo'ladi. Biroq safar va kasallik azobidan holdan toygan qo'shinning ochiqdan-ochiq qarshiligiga duch keladi. Shu bois Aleksandr Gifasis daryosi (Hind daryosi sharqiy irmog'i) bo'yidan ortga qaytishga majbur bo'ladi. Aleksandr o'z davlatining poytaxti qilib Bobil shahrini tanlagan va shu yerda yangi yurishlarga tayyorgarlik ko'rish asnosida bezgak kasaliga yo'liqib vafot etgan. Aleksandr yurishlari natijasida vujudga kelgan ulkan saltanat hududi Hind daryosidan Dunayga qadar cho'zilgan bo'lib, u qadimgi dunyoning eng yirik davlati edi. Lekin mustahkam ichki aloqalari bo'lmagan bu saltanat Aleksandr vafot etgach, tezda parchalanib ketgan va uning hududida bir qancha ellinistik davlatlar vujudga kelgan. Aleksandr harbiy san'at tarixida yirik sarkarda sifatida mashhurdir. Qadim zamonlardan (mil. av. 200-yil) Aleksandr haqida ko'plab rivoyat, afsona, doston va miniatyuralar yaratilgan. Ular o'rta asr adabiyotiga ham kirib kelgan. (5)

Xulosa: Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga yurishlari nafaqat uning davri, balki butun Markaziy Osiyo tarixiga chuqur ta'sir ko'rsatgan voqea bo'ldi. Bu ekspeditsiya nafaqat Aleksandrning shaxsiy maqsadlarini amalga oshirishga, balki O'rta Osiyoning siyosiy, madaniy va iqtisodiy strukturalariga yangi bosqich qo'shishga olib keldi. Aleksandrning Baqtriya va Sogdianaga bo'lgan yurishlari, o'sha davrda mavjud bo'lgan davlatlarni egallash va yangi madaniyatlarning tarqalishiga sabab bo'ldi. Ushbu yurishlar natijasida Helenizmning O'rta Osiyoga kirib kelishi, Grek madaniyati va ilm-fanining mintaqada rivojlanishiga olib keldi. Aleksandrning ekspeditsiyasi orqali yangi siyosiy



tizimlar, madaniy va ilmiy markazlar shakllandi, savdo va iqtisodiy aloqalar kengaydi. Shaharlar, ayniqsa Baqtriya va Sogdiana kabi qadimiy markazlar, yangi siyosiy va madaniy hayotga qadam qo'ydi. Biroq, Aleksandrning yurishi mahalliy xalqlar tomonidan kuchli qarshilikka duch keldi. Sogdianadagi qo'zg'olonlar va boshqa mintaqaviy qarshiliklar, uning ekspeditsiyasining murakkabligini va uzoq muddatli ta'sirini ko'rsatdi. Ushbu qarshiliklar, ayniqsa, mustamlakachilikka qarshi kurash va o'z erkinligini saqlab qolish istagi bilan bog'liq edi. Shu bilan birga, Aleksandrning yurishlari, o'zining tarixi va ta'sirini faqat harbiy sohalarda emas, balki madaniyat, ilm-fan, siyosat va iqtisodiyotda ham qoldirdi. Helenistik madaniyat, uning tasiri ostida, O'rta Osiyo va butun dunyo tarixida yangi bir davrni boshladi. Bu jarayon, shuningdek, savdo yo'llarining rivojlanishi, madaniyatlararo almashinuvlar va O'rta Osiyo hududlarining global tarixdagi o'rnini mustahkamladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azamat Ziyov "O'zbek davlatchiligi tarixi" (eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar)-T.: Sharq, 2000
2. Doniyorov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. T.: NIF MSH, 2020
3. Eshov B. O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari taixi. - Toshkent.: Fan texnologiya, 200
4. Kovalev S. I., Aleksandr Bertels Ye. E., Roman ob Aleksandre i yego glavnie versii na
5. Trever K., Aleksandr Makedonskiy v Sogde, „Vestnik istorii“, 1947, № 5;
6. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
7. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.



8. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
9. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
10. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
11. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
12. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO'LI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
13. Begaliyev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
14. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
15. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
16. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
17. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.